

Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkur,

Fikring oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o‘lur, benur”.

Abdulla Avloniyning ilm-ma’rifat va axloqqa doir qarashlari juda chuqur tahlil va talqinni talab etadi. Olimning pedagogik qarashlarini yaxlit tarzda o‘zida aks ettirgan va muhtaram yurtboshimiz har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan quyidagi g‘oya esa, hech qachon o‘z zalvori hamda ahamiyatini yo‘qotmaydi: ***“Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.***

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din va falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). –T.: Movarounnahr, 2002.-720b.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. T: “Ma’naviyat”, 2006.
3. Mahmudov, D. (2010). Abdulla Avloniy va zamonaviy pedagogika. Toshkent: Yangi asr avlodi
4. N. To‘xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.
5. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet
6. Prezident Sh.Mirziyoyev. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.
7. Qoraev, X. (2007). Avloniyning milliy g‘oyalari. Tashkent: Fan.

MA’RIFATPARVAR JADIDLAR FAOLIYATI

Maxmatqulova Gulira’no Odil qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ma'lumki, jadidchilik harakati nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan.

Kalit so'z: jadid, ma'rifatparvarlik, Turkiston, Gasprinskiy, XX asr

O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik katta ishlarni bajardi.

Ma'lumki, “jadid” so'zi “yangi”, “yangilik” ma'nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo'lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni “ishlab chiqishadi”. Ammo shu tanazzulning “issiq bag'ri”da yashayotgan, shunga ko'nikma hosil qilgan ayrim kishilar bu hayotbaxsh g'oyalarni nayza bilan qarshi olishadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shunday holat yuz berdi. Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbisha kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati katta to'siqlarga uchradi. Bugun biz, oradan 100 yil o'tganidan keyin, Turkistonda M.Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rgananimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga tamal toshini qo'yanini o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoyilik va jasorat deb baholash lozim bo'ladi.

Ammo masalaning ajabtovur tomoni shundaki, bu tarixiy haqiqat uzoq davrlar mobaynida tan olinmay keldi. Jadidlar chor Rossiyasi davrida ham, sovet hokimiyati davrida ham qoralanib kelindi. Ular faoliyati bilan bog'liq tarixiy adolatni tiklash jarayoni uzoq cho'zildi. Faqat xalqimiz mustaqillikka erishganidan, jamiyatda jadid ma'rifatparvarlari faoliyatini o'rganishga ishtiyoq paydo bo'lganidan so'nggina bu harakat keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Shu narsa quvonarliki, Turkistondagi jadid ma'rifatparvarlik harakatini o'rganishdek qutlug' ishga Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi olimlar ham zavq bilan qirishdilar. Hozir jadid ma'rifatparvarlik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko'tarildi.

O‘zbek olimlari jadid ma’rifatparvarlik harakatining turli tomonlarini o‘rganishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Qariyb barcha jadid yozuvchilarining asarlari nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar maydonga keldi.

Saidakbar AGZAMJODJAYEV (Toshkent islom universiteti, tarix fanlari doktori) "JADIDCHILIKNING g‘oyaviy RIVOJLANISH BOSQICHLARI" ilmiy maqolasida ma’rifatparvar jadidchilar haqida: Jadidlarning ma’rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘lqinantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma’naviy barkamollikka yetishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilish, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg‘or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi",-deb yozadi.

Milliy g‘oya, falsafiy ma’nosiga ko‘ra, bir millatning birlashuvi va milliy o‘zlikni anglab yetishni bildiradi. Jadidchilik asoschilaridan biri Ismoil Gasprinskiyga ko‘ra, milliy g‘oya millat taraqqiyoti uchun zarur va eng muhim ishlarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan dastlabki poydevorni yaratishni anglatadi. Uning fikricha, insonlarni bir g‘oya ostida birlashtirish natijasida jamiyatning har bir a‘zosi millat manfaatini o‘zining shaxsiy manfaati sifatida qabul qila boshlaydi; natijada millatga foyda keltiradigan har qanday jamoat ishdan hech kim o‘girilib ketmaydi.

Gasprinskiyning Turkistondagi eng yaqin hammaslagi Behbudiy esa quyi va yuqori maktabning isloh etilishi millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, millatning isloh etilishi bu milliy g‘oya bo‘lib, uni barcha targ‘ib qilishi kerak.

Gasprinskiy “umummilliy g‘oya” mohiyatini tushuntirar ekan, ushbu g‘oya qolgan barcha g‘oyalardan yuqori turishi kerakligini yozadi. Uning fikricha, millatni ulug‘lash, maqsadlarni yuqori ko‘tarish, millatning haqiqiy birligi—bu “umummilliy g‘oya”ning tub mohiyatini tashkil etadi. Bu g‘oya millatning intilishi va foydasini aks ettirishi lozim. “Umummilliy g‘oya” - bu eng oliy va muqaddas narsa bo‘lib, shariat qoidalariga ko‘ra - eng ulug‘vor va qimmatbaho narsadir.

Turkiston jadidchiligi Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon mintaqalaridagiga nisbatan ancha kech, XX asr boshlarida maydonga keldi. Ushbu harakatning asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva vakillari tashkil etdi. Aynan ana shu ziyoli qatlam Turkiston musulmonlari uchun milliy g‘oyani shakllantirib berdi. Turkiston jadidchiligini tadqiq etuvchi ayrim olimlarning

ta’kidlashlaricha, mahalliy jadidlar 1917-yilga qadar umumiy bir dasturga ega bo’lmaganlar. Ularning fikricha, turkistonliklarning dunyoqarashini bir qadar o’zgartira olgan Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari 1917-yilga qadar turkistonlik jadidlarning norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan edi. Ayni shu fikrni yaponiyalik olim H.Komatsu ham ilgari suradi va Fitratning yuqoridagi ikki asari Buxoro va Turkistondagi jadid - islohotchilik harakatining manifesti bo’lganligini ta’kidlaydi.

Bu ta’kid va ta’riflar, albatta, Turkiston jadidchiligining mohiyati va yo’nalishini aniqlashda nisbiy xarakterga ega. 1911 yili Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari nashr etilgunga qadar Turkiston jadidlarining faoliyati ma’lum bir bosqichga ko’tarilgan, ular yangi usul maktablarining yoyilishida anchagina muvaffaqiyatlarga erishgan, va eng asosiysi, Turkistonda milliy matbuotga asos solib bo’lgan edilar.

B.Qosimovning fikriga ko’ra, Turkiston jadidlarining gazeta, xayriya jamiyatlari ta’sis etish, yangi usul maktablarini yoyish, teatr ishlari va boshqa barcha harakatlari bir milliy g’oya uchun xizmat qildi. Uning ta’kidlashicha, har bir g’oyaning milliy g’oyaga aylanishi uchun ikki talabga javob berishi kerak: 1) g’oya millatning haqiqiy ehtiyojidan, turmush tarzidan, asriy an’analaridan va albatta, imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g’oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so’z bilan aytganda, milliylashtirilishi kerak. Ya’ni, g’oya millatning har bir vakili yuragiga yetib borishi kerak.

Turkistonda milliy matbuot va xayriya muassasalarining faoliyati jadidlarning milliy g’oya borasidagi harakatlarini mahalliy jamiyatning turli qatlamlari orasida u qadar tayanch topa olmaganligini ko’rsatdi. Shunday bo’lsa-da, matbuot va adabiyot orqali jadidlar musulmon aholisi o’rtasida oz bo’lsa ham zamonaviy bilimlarni egallashga, jamoat ishlarida qatnashishga bo’lgan qiziqishni uyg’ota oldi.

Turkiston jadidlarining milliy g’oyasi o’z amaliy tatbiqini 1917-yili Qo‘qon Muxtoriyatini tashkil etish bilan yakunladi. Muxtoriyat Turkistonning birinchi va so‘nggi mustaqil siyosiy tuzulmasi sifatida tarixga kirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g’oyaviy asoslari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2016.
2. Afkori umumiya. Tarjimon. 1886. №13; 1886. №14.
3. Millatlar qanday taraqqiy etarlar?. Samarqand, 30.07.1913
4. История общественно-культурного реформаторства на Кавказе и в Центральной Азии (XIX-начало XX века). Самарканд: МИЦАИ, 2012. - С.

5. QOSIMOV B. va boshq. Milliyuygʻonishdavri oʻzbek adabiyoti. - Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.

JADIDLAR VA TAʼLIM TIZIMINING ISLOHOTI

Marqayeva Sevara Otabek qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maʼrifatparvar jadidlar ona tili, taʼlim rivojiga katta eʼtibor qaratganlar. Zero, ayni jihatlar qoloqlikka barham berishda, millatni yorugʻlikka olib chiqishda, yurt taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bu maqolada jadidlarning taʼlim sohasini rivojlantirishga asoslangan matbuot ishlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Jadid, Turkiston, gazeta, taʼlim, “Taraqqiy”, matbuot.

Dastlabki jadid matbuoti 1883-yil Bogʻchasaroyda nashr etilgan I.Gʻaspiralining “Tarjimon” gazetasidir. “Tarjimon” butun turkiy dunyoga yoyilib, Turkistondagi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi maqolalari bilan oʻlkada oʻzlikni anglashni boshlab berdi. 1905-yil oktabrda “Qozon muxbiri”, 1906-yil Ahmad Hodi Maqsudiyning “Yulduz”, Fotih Karimiyning “Vaqt”, Peterburgda “Ulfat” gazetalarini chiqdi. Turkistondagi jadid matbuoti 1905-yildan boshlanadi. Avloniy 1905-17-yillarda Turkistonda 22 gazeta va 8 jurnal nashr etilganiga guvohlik bersa, 1927-yil Ziyosaid 1870-1927-yillarda 45 ta gazeta va 36 nomda jurnal nashr etilganini yozgandi. Yuqoridagi matbuot nashrlarining aksar qismi jadid taraqqiyparvarlari tomonidan chiqarilgan. Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906-yil 27-iyun kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan “Taraqqiy” gazetasi hisoblanadi. Gazeta chiqishi munosabati bilan Ismoilbek Gʻaspirali, Abdulla Toʻqaylardek yirik taraqqiyparvarlar tabrik nomalarini yoʻlladilar, Munavvar qori, Avloniylarning maqolalari bu gazetani xalq oʻrtasida yanada mashhur boʻlishiga yordam berdi.

“Taraqqiy”ning ilk sonida muharrir Ismoil Obidiy oʻzining “Toshkent 14-iyun” maqolasida Turkiston musulmonlariga murojaat qilib, barchani oʻzaro nizolarga chek qoʻyib birlikka chaqiradi. Gazetaning shiori ham maqsaddan kelib chiqqan holda “Najot: maslakda sabot; toʻgʻrilikni ijobat” deb belgilandi. Muallif millatning yorugʻ